
“Xalqaro qizlar kuni” munosabati bilan Yoshlar markazida tadbir bo‘lib o‘tdi

Xalqaro qizlar kuniga 2012-yil, 11-oktabrda BMT Bosh assambleyasida asos solingan. Ushbu kun qizlarning kamsitilishi, ularning ijtimoiy muammolariga butun dunyoning e’tiborini qaratish maqsadida har yili 11-oktabrda nishonlanadi.

Xalqimizda qiz bolani parvarishlash, ularga ta’lim va tarbiya berish, qizlarni oila va yurt sha’ni deb ardoqlash hamisha ustuvorlik kasb etgan. Shoirona ta’bir bilan aytganda “O’g’il bola uyning, qiz bola ko’ngilning sultoni” hisoblanadi.

Tumandagi yoshlar markazida ushbu kun munosabati bilan tadbir tashkil etildi. Tadbirda tuman hokimining o‘rinbosari, xotin-qizlar qo‘mitasi raisi S.Omonboyeva, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi tuman kengashi xodimlari hamda faol yoshlar ishtirok etdi.







Tadbir davomida yurtimizda yoshlarga ayniqsa, qizlar uchun keng imkoniyatlar yaratilayotganligi, turli xil tanlovlar tashkil etilganligi va har sohada tashabbuskor qizlarimiz safi kengayib borayotganligi xususida so'z yuritildi.

Qo'shtepa tumani hokimligi axborot xizmati

2019-10-11 17:56:51